

ERKIN VOHIDOVNING FALSAFIY SHE'RLARI TALQINI

Shahrizoda Botirova Iqboljon qizi

O'zMU O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

b88461900@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning falsafiy g'azallari tahlil etiladi, badiiy obraz, badiiy unsurlarga tayangan holda ma'no nozikliklari tushuntiriladi. Ijodkor ijodiy laboratoriyasiga bir qadar kirgan holda she'rlaridagi mohiyat, asl mazmun ochiqatlanadi.*

***Kalit so'zlar.** Ijod, uslub, adabiyot, g'azal, badiiy obraz, badiiyat, so'z, falsafiylik, falsafa, tuyg'u.*

***Abstract.** In this article, the hero of Uzbekistan, the national poet of Uzbekistan Erkin Vahidov's philosophical ghazals are analyzed, subtleties of meaning are explained based on artistic image and artistic elements. Having entered the creative laboratory of the artist, the essence and original content of his poems is revealed.*

***Keywords.** Creativity, style, literature, ghazal, artistic image, artistry, word, philosophy, philosophy, feeling.*

Ijod- ilohiy jarayon. Ijodkor mana shu jarayonning shunchaki ishtirokchisi emas, balki uning tug'ilishiga doyalik qiladi, bu-muhim va zalvarlidir, yuki og'ir, bu "yuk"ni gardanda ko'tarib yurish mas'uliyati o'ta mashaqqatli bo'lish bilan bir qatorda sharafli ham! O'tgan asr she'riyatida o'zining poetik tafakkuri, takrorlanmas uslubi, ijod individualligi bilan she'r dunyosining "yuk"ini "ux" demay ortmoqlagan, yangiliklar, topilmalar bilan boyitgan lutf, o'zgacha nafas egalari talaygina edi. Har biri, albatta, bir olam. Ularning dunyosida milliy adabiyotimizning sarchashmalaridan qongan tarzda yangi buloqlar ko'z ochganini ko'rish haqiqiy so'z taftini his qiladigan, adabiy muhit daryosiga g'avvos kabi sho'ng'ib, hech bo'lmaganda "qirg'oqqa" bitta durga erishmasdan chiqmaydigan epchil, badiiyat shaydolarigagina nasib qiladi, desak adashmagan bo'lamiz. Yarq etgan chinakam iste'dodni ilg'ash qiyin emas, nazarimda. Yuksak iqtidor egasi olamining mohiyati nur taratadi(yarq etgani shundan), o'qirmanni ohangrabodek o'ziga tortadi, ushbu nur muzlagan qalblarni eritadi, tafakkurini yuksaltiradi, ma'naviy to'yintiradi. XX asr she'riyatida falsafiy, mutoyibaga, o'zining jiddiy ohanggiga ega bo'lgan shoir Erkin Vohidov ijodi ham benazir o'rin tutgan.

Umarali Normatov ta'kidlaganidek, uning she'rlarida, xususan, g'azallarida "biz faqat Vohidovning o'ziga xos shaklini yuzaga keltirgan hissiy ohangini, qalb sadosini, yurak tebranishlarini, o'ylash-fikrlash yo'sinini ko'ramiz". Bu o'zgachalik shoirning barcha, jumladan, "Tabassum", "Kuy avjida uzilmasin tor", "Hozirgi yoshlar", "Shoir-u she'r-u shuur", "Yaxshidir achchiq haqiqat", "O'zbekim" va boshqa shu kabi to'plamlarida uchratish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek shoir g'azallari qatida yashiringan, ayrim o'rinlarda yaqqol ko'zga ko'rinadigan falsafiy fikr, faylasufona o'ylamlar kitobxonni qiynamaydi. Chunki ularda "bironta tushunarsiz so'z yo'q. Erkin Vohidov yosh paytlaridayoq taqlid davridan sakrab o'tib ketgan. Navoiyga ham, Mashrabga ham taqlid qilmadi. Ularga asir bo'lib ham qolmadi. O'sha mumtoz shoirlarning she'r san'ati sirlarini o'rgandi. O'rganganda ham qayta-qayta o'rgandi. Nihoyat o'z yo'lini topdi. She'r ham kuy, ham fikr, ham suvrat, ham tuyg'u. U yig'i, u faryod, u quvonch, u nur..."¹

Darhaqiqat, Erkin Vohidov g'azallari qatida umuminsoniy tuyg'ular tarannum etiladi, falsafiylik kasb etadi. Haqiqiy so'z zargari yanglig' ish ko'radi:

Aslida kim qarardi

Yotganda xor surma,

Bo'ldi aziz ko'ziga

Surtganda yor surma.

Ko'zda qaro na iz bul,

Tun dog'idan asarmu,

Mayxona kezdin-u yo

Mastonavor surma.

Yor ko'ziga yetishmak

Savdo ekan-ku dushvor.

Yonib ko'mir bo'libdi

Bechora zor surma.

O'rtanma, kuyma ortiq

Jismim qaro ekan deb,

Ishq yo'lida qarolik

Taqdirda bor, surma...²

Erkin Vohidov ijodida muhabbat mavzusi yetakchi o'rinlarda turadi. Yuqorida keltirilgan "surma" radifli g'azal ham shular jumlasidandir.

¹Said Ahmad. "Gulxan" jurnali, 2021 yil, 12-son

²E.Vohidov. Yoshlik devoni. G'afur G'ulom nashriyoti.-T.:1969

Mazmun- mohiyatini ilg'aganingizdek, ayollarning pardoz vositasi- surma g'azalda badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Uning "xor, mastonavor, zor" epitetlari o'z o'rnida hech mubolag'asiz ishlatilgan. Ammo, o'ylab ko'ring-chi, shoir bir butun g'azalda surmani vasf qilmoqchimi, yoki...? Albatta, bu ayollarning pardoziga kerakli vosita hisoblanganidek, yorning ta'rif-u tavsifini keltirish, oshiq holatini ifodalash uchun muhim robita bo'lgan! Aslida, she'rda ham ijodkor surmani emas mashuqasini kuylamoqchi. Axir buni sezish qiyin emas- agar yor uni mo'tabar qoshiga surmagani-da surma xor bo'lardi, bir kas-da qayrilib qaramasdi, ammo yor uzvida u aziz bo'ldi. Yor ko'zida ko'ringan u qarolik nedan edi, yoki tundagi dog'dan andoza oldimi yo mastonavor (telbadek) mayxona kezgani uchun o'ziga qarolikni yuqtirdimi? Yor ko'yiga yetishmoqlik shunchalik mushkulmikinki, yonib ko'mir bo'libsan, qaroliging shundandir, deya tahmin qiladi. Ijodiy qahramonning qalbi sevgidan pora-pora esa-da surmaga yupanch beradi: jismim qora ekan deya o'rtanib, kuyaverma, ishq yo'lida solik(yo'lovchi) bo'lib, yo'lga tushdingmi, tan olginki, qarolik ko'rishing hech shubhasizdir. Bu qadar go'zal tashbeh faqat Erkin Vohidgagina xosdir. Bu tasavvur ortida nafaqat faylasufona fikr, balki yangi fikrlarga ona bo'ladigan falsafa yotadi. Yana bir g'azalning ma'no nozikliklariga e'tibor qaratamiz:

Ahli she'r balki kitobim nazmi ishq deb ochadir,
Yo'q, kitobim sevgining devoniga debochadir.

Ko'zlaring orzusida tuzdim navo, zebo sanam,
Nastarin ko'z ochib aytsin, she'ri ham zebochadir.

Balki u zebocha ermas, Balki u bir g'unchadir,
Xusning oftobida ammo Kun sayin zeb ochadir.

Vox, ajab, nomingni aytsam Lol bo'lur til ham ko'ngil,
She'r ipi nogoh qalamning ignasidan qochadir...³

G'azal yana yor ta'rifiga bag'ishlangan. Ammo bu gal oshiq va mashuq o'rtasidagi dilxiralik, hajr, tushkunlik qalamga olinmagan, aksincha, yor portreti go'zal o'xshatishlar ila shoir qalami bilan, huddi rassomning mo'yqalami yordamida chizilgandek nafis ishlangan. Aytilayotganidek, she'r ahli shoir to'plamini balki ishq nazmi(tizma)si deb o'qishga tutinar, ammo bunday emas, bu sevgining devoniga bir debocha xolos. Darhaqiqat, shoirning "Yoshlik Devoni"da muhabbat to'g'risida ko'p va xo'b kuylanadi.

³E.Vohidov. Yoshlik devoni. G'afur G'ulom nashriyoti.-T.:1969

Darhaqiqat, shoirning “Yoshlik Devoni”da muhabbat to‘g‘risida ko‘p va xo‘b kuylanadi. Endi shoir devonning yozilish sababini ochiqalaydi, “Ko‘zlarining orzusida tuzdim navo, zebo sanam, Nastarin ko‘z ochib aytsin, she‘ri ham zebochadir.”

Ijodkor yorining husnini ta‘riflashda davom etar ekan, nastarin ham ul mahbuba husnining porloq quyoshida kundan kunga chiroy ochayotganini, ko‘ngilga u haqida so‘ylab bersa, ham oshiq yuragi, ham tili lol bo‘lishini, ba‘zan esa “She‘r ipi nogoh qalamning ignasidan qochadir” deya takrorlanmas misralarni keltirib o‘tadi.

«Umrini oshiq hamisha o‘tkazur orzu bilan».

Oyning o‘n beshi qorong‘u, O‘n beshi yog‘du bilan.

Sevgida ko‘ksingga tomgan Ko‘z yoshingdan foyda yo‘q,
Ishq axir shunday olovki, o‘chmagay u suv bilan.

Zahmati ishq dard erursa Zahmati she‘rdur davo,
Chunki, og‘uning shifosi, Deydilar, og‘u bilan.

Barcha zahmat menga bo‘lsin, Mayli, doim men yashay,
Bu ajib totli azobu Bu shirin qayg‘u bilan.⁴

Erkin Vohidov g‘azallarida shunday misralar uchraydiki, ayrimlari xalq og‘zidan o‘g‘ziga o‘tib kelmoqda, maqollardan o‘rinli foydalangan ijodkorning mahorati uning ko‘plab g‘azallarida namoyon bo‘ladi: ”Oyning o‘n beshi qorong‘u, O‘n beshi yog‘du bilan” yoki “og‘uning shifosi, deydilar, og‘u bilan” kabi. Hech kimning yoziqlarida uchramaydigan orginal o‘xshatishlar, badiiy obrazlar, ramzlar shoir she‘riyatining naqadar ulug‘vor ekanligidan darak beradi. U deydi: “Sevding, jabr bo‘ldi, qalbing yondi, ko‘zing yoshlandi, ko‘zyoshing qalbingga tushdi, ammo bundan zarracha foyda yo‘q. Axir muhabbat shunday olovdirki, u suv bilan o‘chmaydi.”

Erkin Vohidov ijodiyotida muhabbat baland pardalarda kuylanadi, eng hayratlanarlisi, u kuylardagi “notalar” sizga tanish, begona emas, harqalay. Chunki, qalbingiz qachondir bir muddat bo‘lsa-da mana shu nota oqimiga tushib ko‘rgan-sevgan, sevilgan. Siz bilgan haqiqatlarni, g‘am-u tashvish, baxt-u shodlikni shoir siz eshitmagan ifodalar bilan ifodalaydi, shuning uchun bu badiiyat namunalarida “yashayotgan” hislar, tuyg‘ular sizga tanish-u, ammo badiiy unsurlar notanish. Ijodkor ijodiga yuzlansangiz, sinchiklab o‘rganib tahliliga tutinsangiz uning ham notanishligi qolmaydi siz uchun.

⁴E.Vohidov. Yoshlik devoni. G‘afur G‘ulom nashriyoti.-T.:1969

Barcha iste'dodning yozadigan qalami, hatto qalbidagi kechinmalar bir xillik kasb etishi mumkin, ammo yoziqlaridagi "nafaslar" har xil bo'lganidek Erkin Vohidovning uslubi ham takrorlanmasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Vohidov.Kuy avjida uzilmasin tor.She'rlar va doston.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.-336 b.
2. E.Vohidov. Saylanma.Umrim daryosi. Sharq.-T.: 2001
3. E. Vohidov. Yoshlik devoni. G'afur G'ulom nashriyoti.-T.:1969
4. E.Vohidov.Shoir-u she'r-u shuur. Yosh gvardiya.-T.: 1987
5. Said Ahmad. "Gulxan" jurnali, 2021 yil, 12-son
6. Yo'ldosh Solijonov. "Sharq yulduzi" jurnali,2013 yil, 2-son.